

**LEKSIK TIZIMDA “STEPMOTHER/O‘GAY ONA” KONSEPTINING
LISONIY VOQELANISHI**

MAXSITALIYEVA SAYYORA RAXIMOVNA
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI 14-MAKTAB O‘QITUVCHISI

Jahon tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davrida sistem-struktur tilshunoslikdan keyin yuzaga kela boshlagan generativ nazariya, psixolingvistika, lingvokognitologiya, lingvomadaniyatshunoslik, pragmalolingvistika va kompyuter lingvistikasi singari zamonaviy yo‘nalishlarda ishlab chiqilgan antroposentrik tamoyillar va tadqiqot usullari til yoki nutq birliklarini qiyosiy tipologik tahlil qilish orqaligina inson lisoniy faoliyati haqida to‘laonli tasavvur hosil qilishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Folklorshunoslikda o‘zbek xalq ertaklarining ingliz tiliga o‘girilishi hamda o‘zbek va ingliz xalq ertaklarining qiyosiy tipologik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari nazariy hamda amaliy jihatdan g‘oyatda muhimdir. Dunyo tilshunosligida xalqlar madaniyati kishilar o‘rtasidagi munosabatlarning muayyan bir shakli sifatida tadqiq qilinayotgan yo‘nalish – lingvomadaniyatshunoslik bugungi kunda jadal rivojlanayotgan, tilda o‘z ifodasini topayotgan va barqarorlashayotgan soha sifatida talqin qilish mumkin. Ijtimoiy ongning shakllanish omillarini tahlil qilish turli madaniyatlarning o‘zaro munosabatlarini va o‘zaro tushunish mexanizmlarini chog‘ishtirma tadqiq qilish imkoniyatlarini vujudga keltirdi. Bu esa, o‘z navbatida, tilshunoslikda til va madaniyat munosabatlarining tadqiq qilinishiga asoslangan yangi tadqiqotlarning paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi. Turli xalqlar, jumladan, ingliz va o‘zbek xalqlarining milliy mafkurasi hamda ruhiyatini o‘zida aks ettirgan folklor namunalari chuqur g‘oyaviyligi, badiiyligi bilan e‘tiborga loyiq. Ularda ajdodlarning asrlar osha qilgan orzu-havasi, intilishlari, erk va ozodlik uchun kurashi, bu yo‘ldagi alam va iztiroblari, xarakter-xususiyati, o‘ziga xos an‘analari, ijodkorlik va bunyodkorlik salohiyati milliy mentalitetni ifoda etuvchi muhim belgilar sifatida ko‘zga tashlanib turadi. Shu sababli jamiyat rivoji, ma‘naviy dunyosini boyitishda yetakchi rol o‘ynab kelgan folklor namunalari to‘plash, nashr etish, o‘rganish, boshqa millat og‘zaki ijodi namunalari bilan qiyoslash, o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash va uni jahon ma‘naviyati sahifalariga kiritish bugungi kunning muhim vazifalari sirasiga kiradi. Bugungi kunda zaruriy tadqiqotlardan biri hisoblangan ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarbligi – bir-biridan madaniy, mintaqaviy va hududiy uzoq bo‘lgan ingliz va o‘zbek xalqlari ertaklaridagi “Stepmother /o‘gay ona” konseptining o‘xshash va farqli jihatlarini ochib berish orqali shu xalqlarning turmush tarziga xos realiyalar mushtarakligini isbotlashda o‘z aksini topadi.

Hozirgi kun tilshunosligida konseptologik tadqiqotlarning faollashuvi konsept tushunchasining tilshunoslarni XVIII asrdan buyon qiziqtirib kelayotgan ijtimoiy fanlarda mavjud bo'lgan til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi doimiy savolga oydinlik kiritish imkoniyatiga ega ekanligi bilan izohlanadi (V.A.Bogorodiskiy, M.V.Lomonosov, A.A.Potebnya, V.Gumboldt, E.Benvenist, E.Sepir, L.P.Yakubinskiy, A.X.Vostokov, F.I.Buslaev, A.M.Peshkovskiy, A.A.Shaxmatov va boshqalar). Zamonaviy tilshunoslikda konsept turli fanlar va yo'nalishlar nuqtai nazaridan tadqiq qilinmoqda. Konseptning psixologiya, falsafa, pedagogika, sotsiologiya va boshqa fan sohalari doirasida keng qamrovli o'rganilayotganligi ma'lum, konseptologiya, kulturologiya, sotsiolingvistika kabi lisoniy yo'nalishlarda konsept muammosi izlanishlar obyektiga aylanib ulgurgan¹.

Konsept terminiga o'zbek tilshunoslari, jumladan, O'.Yusupov, A.Nurmonov, Sh.Safarov, N.Maxmudov, D.U.Ashurova, J.A. Yakubov, A.E.Mamatov, B.R.Mengliev, Z.T.Xolmonova, D.Xudayberganova kabi qator olimlar ta'rif berganlar. O'.Q.Yusupov "konseptlar insondagi bilim xazinasidir" deb takidlaydi, uning fikricha konsept bilan tushunchani aysbergga o'xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo'lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir². Sh.Safarovning fikricha, "konsept" tushunchasining o'ta mavhum hodisa ekanligi, uning zamiridagi "mental struktura" aniq moddiy ko'rinishga ega bo'lmasdan, balki aqliy idrok jarayonida hosil bo'ladigan, tasavvurdagi tuzilma ekanligi unga (konseptga) to'liq javob berishni qiyinlashtiradi, konsept "ko'p jihatli va ko'p o'lchovli hodisadir"³. D.U.Ashurovaning fikricha, "konsept deb barcha tushunchalarni atash noto'g'ri, balki dunyo va milliy madaniyat muhitida muhim rol o'ynaydigan tushunchalargina konsept bo'la oladi"⁴. D.Xudayberganova ham konseptning ko'p qirrali va ko'p qatlamli mental tuzilma ekanligini ta'riflar ekan, konsept "bir vaqtning o'zida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etishini, chunki, konseptning kognitiv va lingvokulturologik tadqiqotlar obyektiga sifatida tavsiflanayotgani ham shundan dalolat berib" turganligini ta'kidlaydi⁵.

N.Mahmudov ham terminologiya masalasida to'xtalib, "ular haqida tilshunoslikda juda ko'p yozilgan bo'lishiga qaramasdan, hali hamon ularning

¹ Воробьев В.В. Лингвокультурология. – Москва: Издательство РУДН, 2008. – С. 340; Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. Курс лекций. – Москва: «Гнозис», 2002. – С. 284; Кубрякова Е. С. Язык и Знание: На пути получения знаний в языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – С. 560; Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – Москва: Слово, 2000. – С. 624; Алефиренко Н.Ф. Спорные проблемы семантики. – Москва: Гнозис, 2005. – С. 326

² Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультура атамалари хусусида. – Тошкент, 2011. – Б. 49-55.

³ Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: ЎзМЭ давлат илм. нашр, 2013 – 344 б.

⁴ Ашурова Д.У. Связь вузовских курсов с современными направлениями лингвистики// Филологиянинг долзарб масалалари. – Тошкент, 2008.

⁵ Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Докторлик дисс. автореферати. – Тошкент, 2015. – 102 б.

ayrimlari, masalan, “lisoniy shaxs”, “konsept” terminlari talqinida bir xillikka erishilgan emas” deb yozadi⁶. Qisqacha aytganda, konsept obyektlar va ularning xususiyatlari haqidagi axborotni qurish jarayonida paydo bo‘ladi, bunda ushbu axborot insonni o‘rab turgan dunyodagi voqealarning holatini hamda inson tasavvuridagi dunyo va undagi ishlarning ehtimoliy ahvoli haqidagi ma’lumotlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin. Bu ma’lumotlar shaxsning dunyoning obyektlari haqida bilgan, tahmin qilgan, o‘ylagan, tasavvur etganlarini ifodalaydi.

Biz o‘z tadqiqot ishimizda “konsept” atamasining quyidagi ta’rifiga ergashishni ma’qul topdik: konsept – bu shaxsning o‘zi, tevarak-atrofidagi narsalar, hodisalar haqidagi tushunchalarni o‘z ichiga olgan mental shakllanish bo‘lib, o‘rab turgan borliqni bilishning barcha aspektlari natijalarini umumlashtiruvchi birlikdir⁷.

Konseptologiyaning muammoli bo‘lib qolayotgan savollaridan biri – bu o‘zgarib borayotgan hayot tarzi ta’sirida insonlarning lisoniy shuurida paydo bo‘layotgan yangi konseptlarning shakllanishi hisoblanadi. Ko‘pgina tilshunoslar hamda turli xalqlarga mansub olam lisoniy manzarasi tadqiqotchilari u yoki bu konseptning yozuvchilar tilida qo‘llanishi holatlarini tadqiq qilish harakatlari. Ushbu tadqiqotlardan asosiy maqsad ma’lum tushunchaning konkret shaxs tilidagi semantikasini va ushbu tushunchaning o‘sha tilda gapiruvchi xalq olam lisoniy manzarasida qay tarzda aks etishini aniqlashga qaratilgan. “O‘gay ona” konseptini o‘rganish etnik guruhning dunyoqarashidagi o‘ziga xos xususiyatlar, milliy madaniy qadriyatlar, shuningdek, til sohibi bo‘lgan xalqning tarixiy tajribasini aniqlashga imkon beradi. “O‘gay ona” konseptining mazmuni konsept nomi bilan atalmish hodisa, obyekt haqidagi individual, guruh, sinfiy, milliy va umuminsoniy tushunchalar majmuidan tashkil topadi.

“O‘gay ona” konsepti o‘zbek tilidagi kabi ingliz tili olam manzarasida ham mavjud. Ushbu konseptga berilgan izohlar quyidagicha:

1. *a woman who is the wife or partner of one’s father after the divorce or separation of one’s parents or the death of one’s mother, the wife of one’s parent when distinct from one’s natural or legal mother*⁸.

2. *The woman who is married to someone’s father but who is not their real mother*⁹.

⁶ Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб//Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. № 5.- Б. 3-16.

⁷ Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность: От теории словесности к структуре текста. Антология / Под общ. ред. В.П. Нерознака. – Москва: Academia, 1997. – С. 267–279; Карасик, В.И. Языковой круг: личность, 2. концепты, дискурс. – Москва, 2004. – С. 96; Слышкин Г.Г. Лингвокультурный концепт: номинативная плотность и номинативная диффузность//Аксиологическая лингвистика: проблемы и перспективы: материалы междунар. науч. конф. – Волгоград: Колледж, 2004. – С. 96–98; Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. – Москва: Академический проект, 2004. – 991 с.

⁸ Merriam-Webster’s Dictionary of English Usage. Merriam-Webster, Incorporated, 1989. – P. 872.

⁹ Cambridge Academic Content Dictionary. Cambridge University Press, 2017. – P. 1156.

“Stepmother” konseptining etimologiyasiga diqqatimizni qaratadigan bo‘lsak, kelib chiqish tarixi qadimgi ingliz tiliga borib taqaladi. *Stepmother* so‘zining ingliz tili yozma manbalarida ilk qayd etilgan sanasi XII asrdan ham avvalroq bo‘lgan davrga tegishli. “Stepmother – a woman who is married to one’s father after the divorce of one’s parents or the death of one’s mother.” Sinonimlari *foster mother*, *stepparent*, *stepmom*.

Ona – **mother** so‘ziga ingliz tilida quyidagicha izoh beriladi:

- 1) a) a female who has given birth to offspring; b) (as modifier) a mother bird;
- 2) (often capital, esp. as a term of address) a person’s own mother;
- 3) a female substituting in the function of a mother;
- 4) (often capital) chiefly archaic a term of address for an old woman;
- 5) a) motherly qualities, such as maternal affection it appealed to the mother in her; b) (as modifier) mother love; c) (in combination) mothercraft;
- 6) a) a female or thing that creates, nurtures, protects, etc., something; b) (as modifier) mother church mother earth;
- 7) a title given to certain members of female religious orders mother superior;
- 8) Christian Science God as the eternal Principle;
- 9) (modifier) native or innate mother wit;
- 10) offensive taboo slang chiefly short for motherfucker;
- 11) – be mother;
- 12) – the mother of all ... ;
- 13) to give birth to or produce;
- 14) to nurture, protect, etc. as a mother.

I. your female parent. People often call their mother *Mum* or, especially if they are children, *Mummy*. In the past, people called their mother *Mother* or *Mama*

Ia. the female parent of an animal or bird. **Mother of God** – a title used in some Christian churches for Mary, the mother of Jesus Christ ¹⁰.

Bunday misollar amaldagi deyarli barcha ingliz tili lug‘atlarida takrorlanishi shubhasiz. Har qanday kishining lisoniy ongida bu tushunchalar oilaga, ota–onalarga, qarindoshlik aloqalariga bog‘lab ifoda qilinadi. Etimologik nuqtai nazardan o‘gay ota yoki o‘gay ona bu yetim bolaga ota yoki onaga aylangan kishilar bo‘lib, munosabatlarni nikoh orqali belgilashga kelishiladi. Ingliz madaniyatida ham “o‘gay ona” yovuz va makkora ayol sifatida talqin qilinadi. Asosan quyidagi “fazilat”lar ushbu konseptga hamrohlik qiladi: jismoniy yoki ruhiy zo‘ravonlik ishlatishga moyillik; jodu ilmidan boxabarlik; hatti-harakatida moddiy motivatsiyaning dominantlik qilishi; zarar beruvchi; va albatta, passiv ota obrazining hamrohlik qilishi. O‘gay onani ko‘z oldimizda shakllantirish uchun barcha xususiyatlarini sanab o‘tish shart emas. Asosiy

¹⁰ <https://www.macmillandictionary.com/dictionary/british/mother>

moddiy motivatsiya ko'p hollarda o'ziniki bo'lmagan bolalardan qutulish uchun qilinadigan harakatlar, ya'ni boylik yoki merosga ega chiqish uchun olib boriladigan kurashlar tarzida mavjud bo'lgan.

Lisoniy ong yadrosini tahlil qilganimizda "o'gay ona" konseptida asosan ma'no turli – tumanligi kuzatilmaydi, barcha so'zlovchilar guruhlarini insonni jamiyat bilan bog'lik holda talqin qiladilar va u berahm, beshafqat, yovuz ayol ekanligini ta'kidlaydilar. Masalan: – *Jane was my wicked stepmother: she was generous, affectionate and resourceful; she salvaged my schooling and I owe her an unknowable debt for that;*

– Many stepmothers I have met, both with and without their own children, complain about long periods of being cast in the 'wicked stepmother' role by stepchildren who don't like them, ignore them. But a natural response...

(*Martin Amis*).

"O'gay ona" konsepti antroposentrik xususiyatga ega, ikki elementdan tashkil topgan, birinchi elementi sifat bilan, ikkinchisi esa ot bilan ifodalangan.

"O'gay" so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha ta'riflanadi:

1. *O'gay* – oldingi er yoki xotindan bo'lgan farzandlar hozirgi er yoki xotining hamda ularning qarindoshlariga nisbatan, shuningdek, hozirgi er yoki xotin va ularning qarindoshlari oldingi er yoki xotindan bo'lgan bolalarga nisbatan ishlatiladigan so'z. Masalan: *O'gay nabira. O'gay ota. O'gay xola.*

– *O'gay qaynana yoshi oltmishlarga borgan, semiz, zabardast, dimog'dor kampir edi* (Oybek, Tanlangan asarlar).

2. Bir onadan tug'ilmagan yoki bir otadan bo'lmagan, otasi yoki onasi boshqa, tug'ishmagan farzandlar (bir-biriga nisbatan o'gay deb yuritiladi). Masalan: *O'gay aka.*

- *Botirjon akamning o'gay singlisi bor, oti Adolatxon, shu o'g'il tug'ibdi.* (N. Safarov, Hayot maktabi).

3. (*ko'chma*) O'ziniki bo'lmagan; yot, begona.

- *Bobur o'ziga ulug' bir murabbiy topdim, deb suyunib yurganida, o'gay taqdir uni bu madadkoridan ham judo qildi.* (P. Qodirov, Yulduzli tunlar).

- *"O'gay" ekinlarning holidan hech kim xabar olmadi.* (Gazetadan).

- *Bulbul o'gay erur zog'lar orasida.* (A. Oripov, Ruhim).

Ona so'ziga esa xuddi shu manbada quyidagicha izoh beriladi:

1. *Ona* – Farzandi yoki farzandlari bo'lgan xotin (o'z tuqqan farzandlariga nisbatan); bolali xotin. Masalan: *Ko'p bolali ona.*

- *Qiz ertalab turib, darrov onasiga razm soldi.* (Oybek, TAT).

2. Oila boshlig'i, tarbiyachisi. *Siz hammasining onasi, u kishi – ota. Usta bolani juda yaxshi ko'radilar* (A. Qahhor, Tomoshabog').

3. Keksa ayollarga hurmat yuzasidan ularning nomiga qo'shib ishlatiladi, masalan: *Tojixon ona, Norjon ona.*

4. Keksa ayollarga xurmat bilan murojaat etish formasi.

5. Bola tuqqan jonivor. *Toychoqning onasi. Ona qo'y.*

6. (*ko'chma*) Yaratuvchi, vujudga keltiruvchi. *Yer – hayotning onasi*.¹¹.

“Farzandni tug‘ib tarbiyalagan ayol” (ona) ma’nosi ifoda vositalari paradigmasi “ota–onaning ayol jinsidagisi” ma’nosini bildiruvchi ifoda vositalari tizimida o‘rganildi. Bu o‘zbek va xorijiy tillarda turlicha ifodalanadi: o‘zbek tilida – *ona*, rus tilida – *mat*, tojik tilida – *modar*, ingliz tilida – *mother*. Misol tariqasida: “*a good part of her life was taken up with bearing and raising*” (“umrining asosiy qismi bola tug‘ish va tarbiyalash uchun sarflangan edi”), “*her dramas and her emotions had to do with the boys, with the vestry, and with food*” (“uning barcha tashvishlari o‘g‘illarining tarbiyasi, kirim masalalari va oshxona bilan chambarchas bog‘liq edi”)¹² gaplariga murojaat qilsak, ushbu gaplardagi “ona” konsepti “bag‘ishlangan, atalgan, mo‘ljallangan” kabi tushunchalarni anglatadi.

O‘zbek tilidagi *ona*, ingliz tilidagi *mother* leksemasi “meni tuqqan ayol” // “ota–onaning ayol jinsidagisi” ni anglatadi. “Bolalarning onasi” semasi o‘zbek va ingliz tillaridagi ushbu leksemalarning asosiy ma’nosi hisoblanadi: “*Liza enjoyed universal respect because she was a good woman and raised good children*” (“Liza barchaning hurmatini qozongan edi, chunki u yaxshi ayol edi va yaxshi bolalar o‘stirgan edi”)¹³. Bu misolda “ona” konsepti “onaga hurmat” konseptual mazmuniga ega.

¹¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3 - жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» ДИН, 2007. – Б. 688

¹² Steinbeck, J. E. East of Eden. – London: Penguin Books, 2000. – P. 95.

¹³ Steinbeck, J. E. East of Eden. – London: Penguin Books, 2000. – P. 45.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References)

1. Воробьев В.В. Лингвокультурология. – Москва: Издательство РУДН, 2008. – С. 340; Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. Курс лекций. – Москва: «Гнозис», 2002. – С. 284; Кубрякова Е. С. Язык и Знание: На пути получения знаний в языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – С. 560; Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – Москва: Слово, 2000. – С. 624; Алефиренко Н.Ф. Спорные проблемы семантики. – Москва: Гнозис, 2005. – С. 326
2. Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурема атамалари хусусида. – Тошкент, 2011. – Б. 49-55.
3. Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: ЎЗМЭ давлат илм. нашр, 2013 – 344 б.
4. Ашурова Д.У. Связь вузовских курсов с современными направлениями лингвистики// Филологиянинг долзарб масалалари. – Тошкент, 2008.
5. Худайберганава Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Докторлик дисс. автореферати. – Тошкент, 2015. – 102 б.
6. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб//Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. № 5.- Б. 3-16.